

“TASDIQLAYMAN”
BRB-Capital MChJ direktori

A. A. Sabirov

«_» 2025-yil

**Toshkent viloyati Bo‘stonliq tumani Chimyon mahallasi hududida Apart-otel qurilish
ishlari loyiha-smeta hujjatlarini ishlab chiqish uchun**

TEXNIK TOPShIRIQ

1.	Obyektning nomi	Apart-otel binosi
2.	Buyurtmachi	BRB-Capital MChJ
3.	Moliyalashtirish manbai	O‘z mablag‘i
4.	Loyiha tashkiloti	Eng yaxshi takliflarni tanlash orqali aniqlanadi
5.	Obyektning joylashgan hududi	Toshkent viloyati Bo‘stonliq tumani Chimyon mahallasi Sazbet ko‘chasi 192-uy
6.	Qurilish turi	Yangi qurilish
7.	Obyektning murakkablik darajasi	III-toifa (O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 20-avgustdagi 496-sonli qarori, 2-ilovasi, 26.2-band) va obyektining haqiqiy joylashgan joyi (Toshkent viloyati Bo‘stonliq tumani Chimyon mahallasi Sazbet ko‘chasi 192-uy) bo‘yicha amalga oshiriladi
8.	Bosh pudratchi	Eng yaxshi takliflarni tanlash orqali aniqlanadi
9.	Xizmatlarni ko‘rsatish joyiga qo‘yiladigan talab	Ishtirokchi tomonidan ishlarning bajarilishi buyurtmachi manzili (Toshkent shahri, Yunusobod tumani, Bog‘ishamol ko‘chasi 282-uy) va obyektining haqiqiy joylashgan joyi (Toshkent viloyati Bo‘stonliq tumani Chimyon mahallasi Sazbet ko‘chasi 192-uy) bo‘yicha amalga oshiriladi
10.	Ishlarni bajarish va xizmatlarni ko‘rsatish muddati	Xizmatlarni ko‘rsatish muddati shartnomaga imzolangan kundan boshlab «70» kalendar kuni.
11.	Tanlash doirasida amalga oshiriladigan ishlar sifatiga qo‘yiladigan talablar.	Ishtirokchi ishlarni bajarishda tegishli sifatni ta‘minlaydi. Ishning sifati ushbu texnik topshiriq talablariga muvofiqligi bilan belgilanadi. Qabul qilingan majburiyatlarni bajarmaganligi yoki lozim darajada bajarilmaganligi uchun Ishtirokchi amaldagi qonunchilikka muvofiq moddiy javobgarlikni o‘z zimmasiga oladi.
12.	Faoliyat yuritayotganiga kamida 3 yil to‘lgan bo‘lishi lozim. Davlat ro‘yxatidan o‘tkazilganligi to‘g‘risidagi guvohnoma (Asosiy faoliyat turi – qurilish).	O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016-yil 24-avgustdagi “Iqtisodiy faoliyat turlarini tasniflashning xalqaro tizimiga o‘tish chora – tadbirlari to‘g‘risida”gi 275-sonli Qarori bilan tasdiqlangan Iqtisodiy faoliyat turlarining umum davlat tasniflagichi
13.	Tanlov predmeti bo‘yicha ish tajribasi	Talab etilayotgan yoki shunga o‘xshash xizmatni amalga oshirish tajribasi haqida ma’lumot
14.	Tanlov predmeti bo‘yicha	Qurilish obyektini ko‘zdan kechirganlik to‘g‘risida ma’lumot nomma
15.	Loyiha-qidiruv tashkiloti elektron reytinga egaligi: (https://reyting.mc.uz)	Ishtirokchi loyiha-qidiruv tashkilotlari elektron reytingida ko‘rsatkichi «DDD» darajadan past bo‘lmasligi lozim.

16.	Moliyalashtirish tartibi	Oldindan to‘lov-30%, qolgan 70%i topshirish-qabul qilish dalolatnomasi asosida amalga oshiriladi.
17.	Ishtirokchining moliyaviy holati	Ishtirokchining to‘lov qobiliyatiga layoqatli bo‘lishi, muddatida to‘lanmagan to‘lov hujjatlari hisobi yuritiladigan balansdan tashqari hisobvaraq (Kartoteka-2)da va banklar oldida kredit qarzdorliklari bo‘lmasligi talab qilinadi.

“TASDIQLAYMAN”

BRB-Capital MChJ

Bosh direktori

A. A. Sabirov

“ ” 2025-y.

**Toshkent viloyati Bo‘stonliq tumani Chimyon mahallasi hududida Apart-otel qurilish
ishlari loyiha-smeta hujjatlarini ishlab chiqish ishlari bo‘yicha**

XARID QILISH HUJJATLARI

Buyurtmachi: BRB-Capial.

— 2025 y.

MUNDARIJA

- I. Tanlash ishtirokchisi uchun yo‘riqnomasi.**
- II. Tanlash hujjatlarining texnik qismi.**
- III. Tanlash hujjatlarining narx qismi.**

**ENG YAXShI TAKLIFNI TANLASH (KEYINGI O'RINLARDA - TANLASH) HAQIDA
AXBOROT JADVALI**

Xarid predmeti	Toshkent viloyati Bo'stonliq tumani Chimyon mahallasida Apart-otel binosini qurish ishlari loyihasmeta hujjatlarini ishlab chiqish
Xaridning reja-jadvali	Mart
Savdolarni o'tkazish davri (oy)	Mart
Moliyalashtirish manbai	O'z mablag'i.
Boshlang'ich narx	obyektning joriy narxiga nisbatan QQS bilan birga foiz ko'rinishida.
To'lov shartlari	Oldindan to'lov-30%, qolgan 70% i topshirish-qabul qilish dalolatnomasiga asosida amalga oshiriladi.
To'lov valyutasi	Rezidentlar uchun – O'zbekiston Respublikasi milliy valyutasi so'm;
Etkazib berish joyi va shartlari	Ishtirokchi tomonidan ishlarning bajarilishi buyurtmachi manzili (Toshkent shahri, Yunusobod tumani, Bog'ishamol ko'chasi 282-uy) va obyektining haqiqiy joylashgan joyi (Toshkent viloyati Bo'stonliq tumani Chimyon mahallasi Sazbet ko'chasi 192-uy) bo'yicha amalga oshiriladi
Xizmat ko'rsatish muddati	Shartnoma imzolangan kundan boshlab 70 kun muddatda.
Tanlash taklifining amal qilish muddati	Takliflar berilgan kundan boshlab kamida 30 kun.
Tanlash ishtirokchilariga qo'yiladigan talablar	Tanlashda qatnashish uchun qo'yiladigan shartlarni bajargan, mahalliy ishlab chiqaruvchilar yoki yetkazib beruvchilar (ijrochilar) shuningdek O'zbekiston Respublikasining qonunchilik hujjatlarida ta'qilangan xorijiy ishlab chiqaruvchilar yoki yetkazib beruvchilar (ijrochilar) ishtirok etishi mumkin.
Tanlash takliflarini taqdim etish muddati	5 ish kuni
Tanlash o'tkazish bo'yicha xarid komissiyasi kotibi (yoki ishchi organi)	BRB-Capital MChJ (Ishchi organ). Buyurtmachi manzili: Toshkent shahri, Yunusobod tumani, Bog'ishamol ko'chasi 282-uy Bog'lanish uchun shaxslar: Andayev Sotiboldi Tel.: (+99890) 315-68-80,

I. TANLASH IShTIROKChISI UChUN YO'RIQNOMA

- 1 Umumiy qoidalar.**
- 1.1 Tanlash bo'yicha mazkur xarid qilish hujjatlari (keyingi o'rnlarda - Tanlash hujjatlari) O'zbekiston Respublikasining "Davlat xaridlari to'g'risida"gi qonuni (keyingi o'rnlarda - Qonun), O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 25-iyuldagagi PQ-332-sonli "Investitsiyaviy va infratuzilmaviy loyihalarning loyihaoldi, davlat xaridiga doir tender bo'yicha xarid qilish hujjatlari va texnik topshiriqlar hamda shartnomalarni ekspertizadan o'tkazish tartibini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi qarori va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 20-maydagi 276-sonli "Davlat xaridlarini amalga oshirish bilan bog'liq tartib-taomillarni tashkil etish va o'tkazish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi qarori talablariga muvofiq ishlab chiqilgan.
 - 1.2 Tanlash predmeti: Apart-otel binosi qurilish ishlari loyiha-smeta hujjatlarini ishlab chiqish.
 - 1.3 Tanlash o'tkazish (loyihani amalga oshirish) uchun asos: O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 30-dekabrdagi 911-sonli, "Biznesni rivojalntirish banki" ATB Boshqaruving 2025-yil 10-fevraldagi 15-sonli qarorlari va bank Kuzatuv kengashining 2025-yil 13-fevraldagi 3-sonli yig'ilish bayoni.
 - 1.4 Tanlashning boshlang'ich narxi: obyektning joriy narxiga nisbatan QQS bilan birga foiz ko'rinishida.
 - 1.5 Xarid komissiyasining majlislari xarid komissiyasi a'zolari hozirligida yuzma-yuz o'tkaziladi. Yuzma-yuz majlislar videokonferensiylar (telekonferensiylar va hokazo) shaklida o'tkazilishi mumkin.
Xarid komissiyasi axborot-kommunikatsiya texnologiyalari vositalaridan foydalangan holda masofadan turib ovoz berish huquqiga ega.
- 2 tanlash tashkilotchilari**
- 2.1 Tanlash buyurtmachisi: BRB-Capital (keyingi o'rnlarda - "Buyurtmachi").
 - 2.2 Tanlash o'tkazish bo'yicha xarid komissiyasining ishchi organi BRB-Capital MChJ hisoblanadi.
Buyurtmachining ishtirokchilar bilan bog'lanish uchun aloqa bog'lovchi shaxs: Andayev Sotiboldi
Tel.: (+99890) 315-68-80,
Manzil: Toshkent shahri, Yunusobod tumani, Bog'ishamol ko'chasi 282-uy
 - 2.3 Shartnoma egasi: BRB-Capital MChJ
 - 2.4 Tanlash, kamida besh nafar a'zodan iborat tarkibda buyurtmachi tomonidan tashkil qilingan xarid komissiyasi tomonidan o'tkaziladi.

3 tanlash ishtirokchilari

- 3.1 Elektron tanlash ishtirokchisi (bundan buyon matnda ishtirokchi deb yuritiladi) elektron tanlashda davlat xaridlarini bajarish uchun talabgor sifatida ishtirok etayotgan, O‘zbekiston Respublikasining rezidenti yoki norezidenti bo‘lgan jismoniy yoki yuridik shaxsdir.
- 3.2 Ishtirokchi:
davlat xaridlari to‘g‘risidagi axborotdan qonunchilikda nazarda tutilgan hajmda foydalanish;
buyurtmachiga yoki u tomonidan jalb etilgan ixtisoslashgan tashkilotga muayyan davlat xaridlarining tartib-taomillari, ularni o‘tkazish talablari va shartlari bo‘yicha so‘rovlari berish hamda ulardan tushuntirishlar olish;
davlat xaridlari sohasidagi shikoyatlarni ko‘rib chiqish bo‘yicha komissiyaga xarid qilish tartib-taomillari natijalari yuzasidan shikoyat qilish;
qonunchilikka muvofiq takliflarga o‘zgartirishlar kiritish yoki ularni qaytarib olish huquqiga ega.
- 3.3 Ishtirokchi:
davlat xaridlari to‘g‘risidagi qonunchilik talablariga rioya etishi;
xarid qilish hujjatlari talablariga muvofiq bo‘lgan takliflar va hujjatlarni taqdim etishi hamda taqdim etilgan axborotning ishonchliligi uchun javobgar bo‘lishi;
asosiy benefitsiar mulkdor to‘g‘risidagi ma’lumotlarni oshkor etishi;
g‘olib deb topilgan taqdirda, Buyurtmachi bilan qonunchilikda nazarda tutilgan tartibda va muddatlarda shartnoma tuzishi shart.
- 3.4 Ishtirokchilarning dastlabki malaka tanlovi vaqtida quyidagi tashkilotlarning tanlovida ishtirok etishigi yo‘l qo‘yilmaydi:
- malaka tanlovi uchun zarur hujjatlar to‘plamini to‘liq taqdim etmagan;
- o‘ziga nisbatan to‘lovga qobiliyatsizlik tartib-taomillari joriy etilgan;
- Insofsiz ijrochilarining yagona reestrida qayd etilgan;
- imtiyozli soliq rejimidagi moliyaviy operatsiyalarni amalga oshirishda ma’lumotlarni oshkor qilish va taqdim etishni nazarda tutmaydigan davlatlar yoki hududlarda (offshore hududlar) ro‘yxatdan o‘tkazilgan yoki mazkur hududlarda bank hisobraqamlari ochgan ishtirokchilar;
- ularga nisbatan (taqiqlovchi) moliyaviy sanksiyalar qo‘llanilgan;
- soliqlar va yig‘imlarni to‘lash bo‘yicha muddati o‘tgan qarzdorligi mavjud bo‘lgan;
- tanlash o‘tkazish to‘g‘risidagi e‘lon berilgan sanada davlat ro‘yxatidan o‘tganiga olti oy to‘limgan;

- manfaatlar to‘qnashuvi va affillanganlik holatlari mavjud bo‘lgan;
 - xarid komissiyasi tomonidan ishchi-xodimlar malakasi, ish tajribasi, shu jumladan maxsus faoliyat bo‘yicha tajribasi, ishtirokchilarning o‘z vaqtida sifatli mahsulot ishlab chiqarish yoki yetkazib yetkazib salohiyati va/yoki quvvati yetarli emas deb topilgan.
- 3.5 Buyurtmachi bilan manfaatlar to‘qnashuvi bo‘lgan ishtirokchi davlat xaridlari ishtirokchisi bo‘la olmaydi.
- 3.6 Ishtirokchi davlat xaridi ijrochisi (g‘olib) deb e’tirof etilgan taqdirda:
- tanlash savdolari yakunlari bo‘yicha g‘olib deb rasman e’lon qilingan kundan e’tiboran ikki kun mobaynida davlat xaridlari maxsus axborot portalida tegishli ma’lumotlarni joylashtirish orqali bevosita yoki bilvosita 25 foiz yoki undan ko‘p aksiyalarga (ulushga) haqiqatdan nazorat qilishga ega bo‘lgan o‘zining yakuniy manfaatdor shaxslari (benefitsiarlari) to‘g‘risidagi axborotlarni oshkor qilishlari; o‘zlarining veb-saytlarida va maxsus axborot portalida doimiy asosda tanlash savdolari yakunlari bo‘yicha imzolangan shartnoma majburiyatları bajarilishi haqidagi ma’lumotlarni joylashtirib borishga majbur.
- 4 Tanlash takliflarini baholash tartibi**
- 4.1 Tanlash takliflarini baholash quyidagi ketma-ketlikda amalga oshiriladi:
- tanlash taklifining tanlash hujjatlarida ko‘rsatilgan talablarga mos ravishda rasmiylashtirilganligini tekshirish;
 - ishtirokchining malaka talablarga (tanlash hujjatlarida nazarda tutilgan bo‘lsa) muvofiqligini baholash;
 - tanlash taklifining texnik qismini baholash;
 - tanlash taklifining narx qismini baholash.
- Bunda elektron tizim tanlash taklifining malaka, texnik va narx qismlarida mavjud bo‘lgan ma’lumotlar tanlash taklifining oldingi qismi baholanishi yakunlangandan so‘ng ketma-ketlik bilan oshkor qilinishini ta’minlaydi.
- 4.2 tanlash ishtirokchilari tomonidan tuzilgan hujjatlar ro‘yxati ushbu yo‘riqnomaning 1-ilovasida (№ 1, 2, 3, 4, 5 shakllar) keltirilgan.
- Agar tanlash ishtirokchisi tomonidan taqdim etilgan hujjatlardagi ma’lumotlar ishonchsz deb topilsa, xarid komissiya bunday ishtirokchini tanlash jarayonining istalgan bosqichida tanlashda ishtirok etishdan chetlashtirishga haqli.
- 4.3 Tanlash takliflarini baholash va tanlash g‘olibini aniqlash tanlash hujjatlarida (2-ilova) belgilangan ketma-ketlik, tartib, mezonlar va uslublar asosida amalga oshiriladi.
- 4.4 Ishtirokchi quyidagi hollarda tanlashda ishtirok etishdan chetlashtiriladi:

- u to‘g‘risida insofsiz ijrochilarning yagona reestrida qayd mavjud bo‘lsa;
- unda soliqlar va yig‘imlarni to‘lash bo‘yicha muddati o‘tgan qarzdorlik mavjud bo‘lsa;
- ishtirokchi moliyaviy natijalariga ko‘ra oxirgi moliyaviy yilini zarar bilan yakunlagan bo‘lsa;
- o‘ziga nisbatan bankrotlik tartib-taomillari joriy etilgan bo‘lsa;
- ishtirokchi xarid qilish hujjatlarining malaka, texnik va tijorat talablariga javob bermasa;
- ishtirokchi davlat xaridlari jarayonida davlat buyurtmachisi tomonidan biror-bir xatti-harakatning sodir etilishiga, qaror qabul qilinishiga yoki biror-bir xarid qilish tartib-taomilining qo‘llanilishiga ta’sir o‘tkazish maqsadida davlat buyurtmachisining yoki boshqa davlat organining istalgan hozirgi yoki sobiq mansabdor shaxsiga yoki xodimiga har qanday shakldagi haqni, ishga yollash to‘g‘risidagi taklifni yoxud istalgan boshqa qimmatbaho ashyoni yoki xizmatni bevosita yoxud bilvosita taklif qilsa, bersa yoki berishga rozilik bildirsa;
- ishtirokchi raqobatga qarshi harakatlarni sodir etsa yoki qonunchilikni buzgan holda manfaatlar to‘qnashuvini keltirib chiqarsa, shuningdek affillanganlik hollari aniqlansa.
- ishtirokchisi tomonidan korrupsiya ko‘rinishlariga yo‘l qo‘ymaslik bo‘yicha arizani taqdim etmagan bo‘lsa;
- ishtirokchi shartnoma tuzish huquqiga ega bo‘lmasa;
- ishtirokchi barcha zarur hujjatlar to‘plamini belgilangan muddatda taqdim etmasa yoki o‘z vaqtida taqdim etilgan hujjatlar to‘plami tanlash hujjatlari talablariga javob bermasa;
- ishtirokchi tomonidan taqdim etilgan hujjatlardagi axborotning ishonchsiz yoki soxta ekanligi aniqlangan taqdirda.
- muassislar bitta yuridik va jismoniy shaxslar bo‘lgan ishtirokchilar.

Ishtirokchini xarid qilish tartib-taomillarida ishtirok etishdan chetlatish to‘g‘risidagi qaror va buning sabablari xarid qilish tartib-taomillari haqidagi bayonnomaga (hisobotga) kiritiladi.

4.5 Agar tanlash taklifi Qonunning va tanlash hujjatlarining talablariga muvofiq kelsa, u tegishli tarzda rasmiylashtirilgan deb topiladi. Tanlash taklifi tegishli tarzda rasmiylashtirilganligi yoki rasmiylashtirilmaganligi bo‘yicha xarid komissiyasi mas’ul kotibining qarori uning asoslangan sabablari bilan xarid komissiyasi tomonidan tasdiqladi.

Ishtirokchining tanlash taklifi talablarga mos kelmaganligi to‘g‘risidagi qaror, ushbu qaror qabul qilingan kunda ishtirokchining shaxsiy kabinetiga yuboriladi.

	4.6	Tanlash ishtirokchilarining takliflarini ko‘rib chiqish va baholash muddati takliflar berish tugagan paytdan e’tiboran o‘n ish kunidan oshishi mumkin emas.
5 Tanlashda ishtirok etish uchun taklif berish	5.1	Tanlashda ishtirok etish uchun taklif davlat tilida va zaruriyatga qarab boshqa tillarda tayyorlanadi.
	5.2	Tanlash o‘tkazilganda ishtirokchilar tanlash takliflarini muhrlangan konvertlarda, tanlashni o‘tkazish to‘g‘risidagi e'londa ko‘rsatilgan muddatdan kechiktirmay taqdim etadilar.
	5.3	Tanlash taklifi bilan birgalikda ishtirokchilar eskizlar, rasmlar, chizmalar, fotosuratlar va boshqa hujjatlarni fayl sifatida joylashtirishlari mumkin. Bunda ishtirokchilarning tanlash takliflari elektron tizimdagи namunaviy shakllarga muvofiq hujjatlarni biriktirish orqali taqdim etiladi. Ishtirokchining tanlash taklididagi ma’lumotlar biriktirilgan hujjatlardagi ma’lumotlarga mos kelishi kerak.
	5.4	Tanlash takliflarini ochish muddati yetib kelgunga qadar ular ishtirokchilar, shuningdek, xarid komissiyasi mas‘ul kotibi va a’zolari tomonidan ko‘rilishiga yo‘l qo‘yilmaydi, bundan ushbu takliflarni taqdim etgan ishtirokchi mustasno. Mazkur talabning bajarilishiga operator javobgar hisoblanadi.
	5.5	Tanlash ishtirokchisi: - bitta tanlash taklifini berishga haqli - taqdim etilayotgan axborot va hujjatlarning haqiqiyligi va to‘g‘riliqi uchun javobgar bo‘ladi; - tanlash takliflarini berish muddati tugaguniga qadar berilgan tanlash taklifini qaytarib olishga yoki unga o‘zgartirishlar kiritishga haqli.
	5.6	Joylashtirilgan e'londa ko‘rsatilgan muddat va vaqtda elektron tizim tanlash takliflarini qabul qilishni to‘xtatadi.
	5.7	Ishtirokchining texnik taklifi mazkur yo‘riqnomaga ilova qilingan 6-son shaklga muvofiq lozim:
	5.8	Ishtirokchining narx taklifi elektron tizimning tegishli bo‘limiga kiritiladi.
6 Tanlash takliflarini taqdim etish muddatini uzaytirish	6.1	Zarur bo‘lgan hollarda buyurtmachi tomonidan tanlash takliflarini berish muddati uzaytirilishi yoki tanlash ishtirokchilari tanlash takliflari qabul qilinishi muddati xarid komissiyasi qarori bilan ma’lum vaqtga uzaytirish taklifi bilan murojaat qilishi mumkin.
	8.2	Buyurtmachi xarid komissiyasi bilan kelishilgan holda tanlashda ishtirok etish uchun takliflar berish muddati tugaydigan sanadan kamida bir ish kuni oldin tanlash hujjatlariga o‘zgartishlar kiritish to‘g‘risida qaror qabul qilishga haqli. Tovarning (ishning, xizmatning) o‘zgartirishga yo‘l qo‘yilmaydi. Bunda ushbu tanlashda takliflarni taqdim

		etishning tugash muddati kamida uch ish kuniga uzaytiriladi. Shu bilan birga, e'londa ko'rsatilgan axborot o'zgartirilgan bo'lsa, tanlash o'tkazish to'g'risidagi e'longa o'zgartirishlar kiritiladi.
7	Tanlash natijalarini sarhisob qilish	<p>7.1 Tanlash taklifining texnik va narx qismlarini baholashni hisobga olgan holda eng yuqori ball to'plagan ishtirokchini (ball usuli) g'olib sifatida aniqlaydi. Baholash natijasiga ko'ra ikki yoki undan ortiq ishtirokchilar bir xil ball to'plagan bo'lsa, eng past narx taklif etgan ishtirokchi g'olib deb topiladi.</p> <p>7.2 Quyidagi hollarda tanlash o'tkazilmagan deb topiladi:</p> <ul style="list-style-type: none"> - agar tanlashda bitta taklif taqdim etilgan yoki birorta ham taklif taqdim etilmagan bo'lsa; - agar xarid komissiyasi malaka va texnik baholash bosqichida barcha takliflarni rad etgan bo'lsa yoki faqat bitta taklif tanlash bo'yicha xarid qilish hujjatlari talablariga muvofiq kelsa. <p>Bunday holatda buyurtmachi Qonun talablariga muvofiq yangi tanlash o'tkazishi yoxud elektron do'kon yoki auksion orqali xaridni amalga oshirishi mumkin.</p>
		7.3 Tanlash takliflarini ko'rib chiqish hamda baholash natijalari bayonnomada qayd etiladi va tanlash o'tkazish bo'yicha xarid komissiyasi a'zolari tomonidan imzolanadi.
8	Boshqa shartlar	<p>8.1 Tanlash ishtirokchisi tanlash bo'yicha xarid qilish hujjatlaridagi talablarni tushuntirish talabi bilan buyurtmachiga xat orqali so'rov yuborishga haqli. Buyurtmachi so'rov tushgan sanadan e'tiboran ikki ish kuni ichida ushbu so'rovga xat orqali tushuntirish yuborishi shart. Tanlash bo'yicha xarid qilish hujjatlarining qoidalari doir tushuntirishlar ularning mazmun-mohiyatini o'zgartirmasligi kerak.</p> <p>8.2 Tanlash ishtirokchisi taqdim etilgan tanlash takliflarini berish muddati tugaguniga qadar berilgan tanlash taklifini chaqirib olishga yoki unga o'zgartirishlar kiritishga haqli.</p>
9	Tanlash natijalari bo'yicha shartnoma tuzish	<p>9.1 Tanlash natijalariga doir shartnoma tanlash bo'yicha xarid qilish hujjatlarida va o'zi bilan shartnoma tuzilayotgan tanlash ishtirokchisi tomonidan taqdim etilgan taklifda nazarda tutilgan shartlar asosida g'olib aniqlangan vaqt dan boshlab o'n ish kunidan kechiktirmasdan tuziladi.</p> <p>9.2 G'olib shartnoma tuzishni rad etgan taqdirda:</p> <p>Agar xarid komissiyasi tomonidan zaxiradagi g'olib aniqlangan bo'lsa, shartnoma tuzish va unga doir majburiyatlarni bajarish huquqi zaxiradagi g'olibga o'tadi. Bunda zaxiradagi g'olib g'olib tomonidan taklif etilgan narx bo'yicha (bundan zaxiradagi g'olib taklif etgan narx g'olib tomonidan taklif etilgan narxdan past bo'lgan hollar mustasno) shartnoma tuzadi yoki shartnoma tuzishni rad etishi mumkin.</p>

